

Surxondaryo viloyati hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari tayinlandi



Mengliev Faxriddin Valievich Surxondaryo viloyati hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari etib tayinlandi.

Faxriddin Mengliev 1982 yilda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida tug'ilgan. Ma'lumoti oliy, 2006 yili O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Akademiyasi, 2013 yili Ichki ishlar Akademiyasining Oliy akademik kursini tamomlagan. Mutaxassisligi huquqshunos. Harbiy (maxsus) unvoni podpolkovnik.

Mehnat faoliyati davomida turli yillarda Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi tizimida mas'ul lavozimlarda - Tergov boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari, Tashkiliy-inspektorlik bo'limi, Tashkiliy-inspektorlik va axborot-tahlil bo'limi, Tashkiliy boshqarma, shuningdek, Muzrabot tumani ichki ishlar bo'limi boshlig'i, viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinnbosari lavozimlarida ishlagan.

Faxriddin Mengliev joriy yilning aprel oyidan Surxondaryo viloyati hokimining jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha maslahatchisi lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan edi.

https://t.me/axborot_xizmati